



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASINING QARORI

20 21 y. “ 7 ” dekabr № 54

Uy-joy narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9- moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar narxlari statistikasi sohasini xalqaro amaliyot va tajribalar asosida yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo‘mitasi **QAROR QILADI:**

1. Uy-joy narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin;
2. Davlat statistika qo‘mitasining 2019- yil 27- dekabridagi “Uy-joy bozorida narxlar kuzatuvini tashkil etish va indekslarni hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 46- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Ushbu qaror 2022- yil 1- yanvardan kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov